SO'ZLARNING GRMMATIK MA'NOLARI. SO'Z TURKUMLARI TASNIFI.

Tursunqulova Aziza Xayrulla qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24238753

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida so'z turkumlarini o'rganish va ularni ilmiy jihatdan tasniflash masalalari, mustaqil, yordamchi hamda oraliq sozlarning o'ziga xos turlari, shuningdek, jami o'n ikki leksema guruhi doirasidagi ilmiy yondashuvlar atroflicha tahlil qilingan. Matnda mustaqil so'z turkumlarining morfologik xususiyatlari, ularning tartiblanish tamoyillari va grammatik kategoriyalar tizimi yoritib berilgan.
Kalit so'zlar: Ot, sifat, son, ravish, taqlid so'z, olmosh, fe'l, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, oraliq so'zlar, grammtik kategoriylar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issues of studying parts of speech in Uzbek linguistics and their scientific classification, the specific types of independent, auxiliary, and intermediate words, as well as scientific approaches within a total of twelve lexeme groups. The text highlights the morphological features of independent parts of speech, the principles of their arrangement, and the system of grammatical categories.
Keywords: Noun, adjective, numeral, adverb, onomatopoeic word, pronoun, verb, postposition, conjunction, particle, intermediate words, grammatical categories.

Kirish

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlarini o'rganish va ularni ilmiy jihatdan tasniflash masalasi tilning leksikasi, grammatikasi, shuningdek, lison va nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayonlardan biridir. Dastlabki tasniflarda olmosh, fe'l va ravish alohida o'rganilib, ot, sifat, son va olmosh otga aloqador so'zlar sifatida qaralgan bo'lsa, fe'l va ravish ikkinchi qutbni tashkil etgan. Ayrim tadqiqotchilar esa mustaqil so'z turkumlari tarkibiga taqlid so'zlarni ham kiritgan holda fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so'z va olmosh tarzidagi tasnifni ilgari surishgan. Shuningdek, mustaqil so'zlarni narsa-buyumni bildiruvchi so'zlar (ot), belgi bildiruvchi so'zlar (sifat, son, ravish), harakat-holatni bildiruvchi so'zlar (fe'l) hamda ko'rsatuvchi so'zlar (olmosh) kabi guruhlarga bo'lish ham mumkin.

Ko'pchilik tasniflarda mustaqil so'z turkumlariga oltita so'z turkumi kiritilayotgan bo'lib, asosiy tafovut ularning tartiblanishida, xususan, fe'l so'z turkumining oldinga o'tkazilishida ko'rinadi. Buning sababi fe'l so'z turkumlari ichida eng katta, grammatik kategoriyalarga boy va mukammal so'z turkumi ekanligidir. Biroq har qanday harakat ham predmet yoki shaxs tomonidan bajarilishi, inson dunyoga kelgach avvalo narsa-buyumlarga duch kelib uni atashi bois, fe'ldan keyin ot turkumining berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Olmosh so'z turkumining mustaqil so'zlarga kiritilishi yoki kiritilmasligi bo'yicha ham fikrlar turlicha bo'lib, ayrim maktab darsliklarida olmosh hatto taqlid so'zlardan keyin ham berilmoqda. O'zbek tili leksemalarining semantik, morfologik va sintaktik belgilar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

majmuidan iborat serqirra mohiyatiga ko'ra, ularni mustaqil, yordamchi va oraliq so'zlarga bo'lgan holda to'liq o'z ichiga oluvchi jami o'n bitta turkum guruhi mavjud bo'lib, ular matn ichida quyidagicha tartiblanadi: Birinchisi, mustaqil so'zlar sirasiga kiruvchi harakat-holatni bildiruvchi atash mustaqil leksemasi bo'lgan fe'l hisoblanadi. U nisbatlanuvchi, o'zgalanuvchi va tarzlanuvchi morfologik belgilarga ega bo'lib, cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela oladi. Ikkinchisi, predmet va predmetlikni bildiruvchi atash mustaqil leksemasi – ot turkumi bo'lib, u sonlanuvchi morfologik belgiga ega va erkin gap bo'lagi vazifasida keladi. Uchinchisi, belgini atovchi mustaqil leksema sifatida sifat ajratilib, u darajalanuvchi morfologik belgisi bilan ajralib turadi. To'rtinchisi, miqdorni atovchi mustaqil leksema bo'lgan son tartiblanuvchi morfologik belgiga ega. Beshinchisi, o'rin-payt, tarz-tusni atovchi mustaqil leksemalar sirasiga kiruvchi ravish o'zgarmaslik morfologik xususiyatiga ega. Oltinchisi, tovush yoki ko'rinishga taqlidni bildiruvchi mustaqil leksema – taqlid so'zlar bo'lib, ular ham o'zgarmaslik xususiyatiga ega. Yettinchisi, ishora qiluvchi mustaqil leksemalar jumlasiga kiruvchi olmosh gap bo'lagi vazifasida erkin kela oladi. Sakkizinchisi, yordamchi so'zlar guruhiga kiruvchi so'zni so'zga bog'lovchi, o'zgarmas, biroq gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan ko'makchi keladi. To'qqizinchisi, so'zni va gapni bog'lovchi, o'zgarmas, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan sintaktik aloqa vositasi bo'lgan bog'lovchi o'rin oladi. O'ninchisi, so'zga yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklovchi, o'zgarmas, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan yordamchi so'z – yuklama sanaladi. O'n birinchisi oraliq so'zlar sirasiga kiruvchi his-hayajon, munosabat, tasdiq-inkor yoki taklif ma'nolarini ifodalovchi, gap bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kirishmaydigan, lekin o'zi mustaqil ravishda butun bir gap vazifasida kela oladigan modal so'zlar, undov, tasdiq-inkor va taklif ma'noli so'zlar (so'z-gaplar) ushbu leksema turlarini to'loiq yakunlaydi. Oraliqdagi so'zlarga undov , modal , tasdiq- inkor , taklif- ishoraga bo'linadi . Avval taqlid so'zlar ham oraliq so'z deb qaralgan. So'zlar o'zbek tilida 3 xil tasniflanadi semantik , morfologik , sintatik . Bunda so'z turkumlar turlicha tasniflanadi.

So‘zlarning semantik tasnifi. So‘zlar semantik xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga ajratiladi: mustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlar, nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlar hamda lug‘aviy ma’nosiz so‘zlar. Mustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlarga fe’l, ot, sifat, son, ravish va taqlid so‘zlar kiradi. Nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlar olmosh va so‘z-gaplardan tashkil topadi. Lug‘aviy ma’nosiz so‘zlar esa ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalardan iborat. Olmosh anglatadigan ma’no u almashtirayotgan so‘zning ma’nosiga bog‘liq. Shu boisdan u nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘z sifatida baholanadi. So‘z-gaplar (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal so‘zlar) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu jihati bilan ular lug‘aviy ma’nosiz so‘zlardan farq qiladi. Biroq kontekst yordamida lug‘aviy ma’no anglatadi. Masalan, «Uyga bor» va «Mayli» gaplarida «mayli» so‘z-gapi «boraman» so‘zi anglatgan lug‘aviy ma’noga teng nutqiy ma’noga ega. Biroq bu ma’no mustaqil emas.

So‘zlarning morfologik tasnifi. Morfologik tasnifga binoan so‘zlar ikki guruhga ajratiladi: o‘zgaruvchi leksemalar va o‘zgarmas leksemalar. O‘zgaruvchi leksema lug‘aviy shakl hosil qiluvchilarni qabul qila oladi. O‘zgarmas so‘z esa bunday xususiyatga ega emas. O‘zgaruvchi leksemalarga fe’l, ot, sifat va son kiradi. O‘zgarmas leksemalarga esa taqlid, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va so‘z-gaplar kiradi. O‘zgaruvchi turkumlar uchun tasniflovchi grammatik shakllar mavjud. Masalan, otlarda son va subyektiv baho shakllari, fe’llarda nisbat, o‘zgalochi va harakat tarzi shakllari, sifatlarda daraja shakllari mavjud. O‘zgarmas so‘zlar esa bunday grammatik shakllarga ega emas. Bu tasnifda olmoshga alohida o‘rin berilmagan, chunki u ishora qiluvchi barcha mustaqil so‘z turkumlariga xos o‘zgarish tizimiga ega. Shu sababli olmoshning ot-olmosh, fe’l-olmosh,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

sifat-olmosh va son-olmosh kabi turlari mavjud. Ot-olmosh sonlanadi, fe'l-olmosh nisbatlanadi, tarzlanadi va o'zgalanadi, sifat-olmosh darajalanadi, son-olmosh esa son shakllarini qabul qiladi.

Leksemalarning sintaktik tasnifi. Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish yoki olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish yoki olmaslik xususiyatlari hisobga olinadi. Ushbu tasnifga ko'ra so'zlar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'zlar kiradi. Bular undov, modal va so'z-gaplardan iborat. Ikkinchi guruhga gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'zlar kiradi. Ularga fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid va olmoshlar mansub. Uchinchi guruhni sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar tashkil etadi. Bular ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalardir. So'z-gap boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralganlik xususiyatiga ega. Mustaqil va yordamchi so'zlar esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, yordamchi so'zlar gapda alohida bo'lak sifatida kelmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

Har bir mustaqil so'z turkumi morfologik jihatdan o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega bo'lib, bu shakl hosil qiluvchi affikslar, shuningdek, ot bilan fe'l turkumida so'z o'zgartiruvchi affikslar yordamida amalga oshiriladi. Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma'no bilan shu ma'noni ifodalovchi shakllar grammatik kategoriya deb ataladi. Grammatik kategoriyalarga ega bo'lish faqat mustaqil so'z turkumlarigagina xos xususiyatdir. Grammatik jihatdan eng murakkab so'z turkumi fe'l bo'lib, u oltita grammatik kategoriyaga (bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, nisbat, shaxs-son, zamon) ega. Ot so'z turkumida uchta (son, egalik, kelishik) grammatik kategoriya mavjud bo'lsa, sifatda faqat bitta – daraja kategoriyasi bor. Son va olmosh o'ziga xos alohida grammatik kategoriyalarga ega bo'lmasa-da, otga xos kelishik, egalik va son qo'shimchalari bilan o'zgarib kela oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, so'z turkumlari tasnifi o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. So'zlarni ma'nosi, grammatik xususiyatlari va gapdagi vazifasiga ko'ra guruhlarga ajratish tilning grammatik tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi. Har bir so'z turkumi o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, ular nutq jarayonida muayyan vazifani bajaradi. So'z turkumlarini o'rganishda leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarni birgalikda hisobga olish muhimdir. Chunki aynan shu belgilar so'z turkumlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ayrim so'zlarning nutq jarayonida boshqa turkumga o'tishi tilning rivojlanishi va grammatik imkoniyatlarining kengayib borishini ko'rsatadi. Demak, so'z turkumlari tasnifini ilmiy jihatdan o'rganish o'zbek tilining grammatik qonuniyatlarini anglash, so'zlarni to'g'ri tahlil qilish va savodli nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 460 b.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBz_turkumlari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.